

**MAXSUS MAKTAB O'QUVCHILARIDA MULOQOT VA NUTQ
MEXANIZIMLARINI SHAKILLANTIRISH (TIFLO YO'NALISHI BO'YICHA)**

Naimova Durdona Sohbovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-kurs
tayanch doktoranti

Annotasiya: Mazkur maqolada alohida ko'mak va e'tiborga muhtoj bolalar ta'lim-tarbiyasi, xususan, ko'rishida kamchiliklari bo'lgan bolalar va ularning nutqida hamda muloqot jarayonidagi kamchiliklarini bartaraf etish yuzasidan olib boriladigan ishlar haqida bildirilgan fikr-mulohazalar atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Nogironlarni rehabilitatsiya qilish, imkoniyati cheklangan, bola, maxsus maktab, korreksiya, anomaliya, korreksion pedagogika muloqot, nutq, tiflopedagogika.

Аннотация: В данной статье подробно освещены мнения, высказанные по поводу обучения и воспитания детей, нуждающихся в особой поддержке и внимании, в частности детей с нарушениями зрения, и работе по устранению их речевых и коммуникативных недостатков.

Ключевые слова: Реабилитация инвалида, инвалид, ребенок, специальная школа, коррекция, аномалия, коррекционная педагогика, общение, речь, детская педагогика.

Abstract: In this article, the opinions expressed about the education and upbringing of children who need special support and attention, in particular, children with visual impairments and the work to eliminate their speech and communication deficiencies, are covered in detail.

Key words: Rehabilitation of the disabled, disabled, child, special school, correction, anomaly, correctional pedagogy, communication, speech, child pedagogy.

Kirish.

Alohida ko'makga muhtoj bolalarning ta'limi, tarbiyasi va rehabilitatsiyasi jarayonlarini isloh qilib borish rivojlanish darajasidan qat'iy nazar har bir davlat va jamiyat oldida turgan asosiy masalalardan biridir. Xususan, Respublikamizda imkoniyati cheklangan insonlarni ijtimoiy himoyalash, o'qitish, tarbiyalash masalalari davlat siyosati darajasigaolib chiqilgan. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (23 modda) va davlatimiz tomonidan 1992 yil ratifikatsiya qilingan BMT ning "Bola xuquqlari to'g'risida"gi Konventsiyasi (23-modda)da imkoniyati cheklangan bolalarning alohida parvarish, ta'limdan foydalanish, munosib turmush kechirish singari bir qancha huquqlariga egaligi e'tirof etilgan[2, 3]. Ma'lumki, bugungi kunda bolalalikdan yoki hayoti davomida u yoki bu omillar sababli nogiron bo'lib qolgan insonlar ta'limda alohida e'tiborga muhtoj. Mazkur toifa bolalar, o'smir va kattalarning ta'limi, tarbiyasi umumiy pedagogikaning barcha qonuniyatlariga asoslangan holda mustaqil fan sifatida tadqiq qilinmoqda, o'sib bormoqda.

Adabiyotlar sharxi va metodologiyasi.

Ko'zi ojiz maxsus maktab o'quvchilari muloqot qobiliyatlari va muammosi A.M.Vilenskaya, L.S.Volkova, M.I.Zemtsova, G.V.Grigorieva, V.P.Gudonis, N.S.Teri, R.A.Qurbonov, G.V.Nikulina, L.I.Plaksina, L.I.Solntseva va boshqa olimlarning asarlarida o'z aksini topgan[4, 5, 6, 7, 8, 9].

Ko'rish qobiliyati zaif maktab o'quvchilari aloqa ko'nikmalari rivojlanishda tajriba katta ahamiyatga ega ekanligini unutmazlik lozim. Ko'zi ojiz bolalar aytilgan so'zning ma'nosini tushinishda qiynaladi, ba'zan kattalar aytganini takrorlay olmaydi.

Ko'rish qobiliyati zaif bolalar o'zlarini cheklangan va ishonchsiz his qilishadi, bu hatto ularning tana harakatlarida ham namoyon bo'ladi: xulq-atvor, hissiy buzilishlar, hissiy ko'rinishlarning stereotipi, munosabatlar haqida noaniq bilim imo-ishoralari, yuz ifodalari, vaziyatlar va muloqot shakllari bilan pozitsiyalar, vaziyatga mos kelmaydigan g'ayritabiyy pozitsiyalarda ifodalangan muloqot va boshqalar.

Yuqoridagi muammoli vaziyatlardan kelib chiqqan holda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni har tomonlama o'rganish zaruriyati yuzaga keldi. Ularning ruhiyatini yaxshi bilish, pedagogik jarayonini unumli kechishini ta'minlaydi.

Nogiron, tug'ma kasalmand bolalar dunyoga kelishini ijtimoiy sabablarini o'rganish, uni oldini olish, ularning dardlariga malham bo'lish bu boradagi muammolarni hal etishning birlamchi manbaidir. Jumladan, L.S.Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o'rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi o'zining yangicha ta'limotni ishlab chiqdi. U "Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari" nomli asarida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'limni olib borish lozimligini, korreksiya, kompensatsiya usullari va bularni yanada oshirish chora-tadbirlarini, usullarini ko'rsatib berdi.

L.S. Vigotskiy anomal bolada nafaqat "salbiy", aksincha, "ijobiy" jihatlarini ham o'rganib, aniqlab, shularga tayangan holda va potentsial qobiliyatni inobatga olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish darkorligiga e'tibor qaratdi. U korreksion pedagogika sohasida ulkan bebaho meros qoldirdi[7, 8, 9].

Mashhur psixolog L.V.Zankov 1935 yildan L.S.Vigotskiy bilan hamjihatlikda ishladi. Mazkur olimlarning olib borgan tadqiqot ishlari psixologiya va korreksion pedagogikaning nazariy jihatdan shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi. Olimlar aqliy jihatdan qoloq bolalar psixikasi taraqqiyoti qonuniyatlarini noto'g'ri tushunishga qarshi chiqdilar, "rivojlanishning to'xtash nazariyasi", "chegara", "degeneratsiya nazariyasi", "ma'naviy defektli" kabi g'ayri ilmiy, asossiz va reaksiya nazariyalarni fosh qildilar[8].

L.S.Vigotskiy tomonidan, ko'zi ojizlar oltinchi sezgi (harakat) ga egaligi ko'rsatilib, u ularga narsalarni masofada sezishga, hatto ranglarni ham sezishga imkoniyat yaratishi aniqlangan[9, 10, 11].

Ta'lim jarayonida pedagog, ota-onalar ko'rlikni kompensatsiya qilish bolada uning hayotining birinchi oylaridan boshlanishini hisobga olishi zarur. Ko'rlikni kompensatsiyalash, deydi L.I.Solntseva, butun psixik ta'lim tizimini, sensor tizimini, intellektual komponentlarni o'z ichiga oladiki, bular bolalarga adekvat va tashqi dunyoni aktiv aks etiradi va bolalarni yoshiga qarab har xil shakldagi faoliyat bilan shug'ullanishiga imkoniyatlar yaratib beradi[5, 6]. Zaif ko'ruvchilar hodisalar, predmetlar bilan tanishganda, shuningdek, maydon orientirovkasini olishda va harakatlanganda ularda saqlanib qolgan ko'ruvdan foydalanishadi. Jumladan, ko'zi ojizlarda ranglarni idrok etish buzilgan holatda bo'ladi. Keskin ifodalangan yaqindan ko'rishda va uzoqdan ko'rishda ko'zi ojizlar ba'zi bir predmetni ifodalaydigan hira-shira belgilarni ilg'amasdan qolishi mumkin. Maxsus ta'lim erta boshlanganda normal maydon va stereoknopik ko'ruv yaxshi rivojlanadi va mukammallashadi, bu ularda kelajakda murakkab fazoviy ko'rgazmalarni idrok etish imkonini beradi.

Metodologiya: Eksperimental pedagogik jarayonlarda anomal bolalarning rivojlanishi maxsus ta'lim ta'siri ostida qanday o'zgarib borishini o'rganish, ulardagi mavjud nuqsonlarni ham, ijobiy tomonlarini ham aniqlash yuzasidan qiyosiy eksperimental tadqiqotlar o'tkazish.

Natijalar va muhokamalar.

Ko'zi ojiz shaxslarni taraqqiyotining manbalarini bilmay turib, ular ta'limiga mutlaqo yondosha olmaymiz. Ko'zi ojizlar ham sog'lom insonlar kabi yashashga, ilm olishga, ishlash va hayotda o'z o'rnini topishga haqlidirlar. Respublikamiz siyosati, albatta, ko'zi ojiz insonlarni ham inobatga olib, ta'lim-tarbiya jarayonlariga ijobiy natijalarni olib kelmoqda. Zero, bizning ma'naviy merosimiz va muqaddas dinimizda komil inson tarbiyasi asosiy mavzu sifatida talqin etilgan.

Ota onalar o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berib, kamolga yetkazsa, farzandining hayotga toza ruh, bir olam orzu intilishlari bilan qadam qo'yayotganini ko'rsa, umri ma'noga to'ladi, hayotda armoni qolmaydi. Inson shaxsinig to'laqonli, atroflicha mukammal bo'lib, rivojlanishi, shakllanishi uchun barcha analizatorlar sog'lom bo'lishi lozim. Aks holda inson bir butun holda me'yoriy rivojlanishi bo'lmasligi mumkin. Analizatorlarning tuzilishi nafaqat atrofdan kelayotgan taasurotlarni qabul qilish aksincha ularni taxlil qilish, faoliyatni nazorat qilishni ham ta'minlaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, ko'rish analizatorining zararlanishi insonni ruhiy jarayonlarining turli tomonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Olib borayotgan tadqiqotimizning asosi ko'rishda nuqsoni bo'lgan 12-13 yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish xususiyatlarini o'rganish, shuningdek, nutq kamchiliklarini bartaraf etishning pedagogik texnologiyasini nazariy asoslash va ishlab chiqishdan iborat.

Ya'ni ko'zi ojiz bolalarda diqqat, sezgi, idrok, xotira, tasavvur, hayol, tafakkur va nutq jarayonlari me'yordan chetga chiqishi nazarda tutiladi. Ular atrof muhitni, undagi predmet xossalarini, voqealar mohiyatini tushinishida paypaslab sezish idroki katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda ko'zi ojiz bolalarning xotira jarayonlari va nutqiy o'stirish omillari olimlar tomonidan chuqur o'rganilmaganliqi, tadqiqotimizning dolzarbligini asoslaydi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda ko'zi ojiz bolalarda nutq va muloqotni shakllanishida ijtimoiy muhit muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi o'quvchilarga ta'lim berish o'qituvchidan nafaqat pedagogik, balki psixologik bilim va malakani talab etadi. Shu bilan bir qatorda o'qituvchi bolani oilaviy muhiti haqida ham ma'lumotga ega bo'lishi, Imkon qadar aloqani yo'lga qo'yishi bola rivojlanishiga ijobiy ta'sir etishi shubhasiz. Qolaversa, mazkur turdagi bolalarga ta'lim berishda, ularni nutqiy rivojlanishini o'stirishda ularning imkoniyatlari darajasini har jihatdan inobatga olgan holda alohida metodika ishlab chiqish, ishlab chiqilgan metodikalarni eksperimental jarayonlarga jalb etish muhimdir.

References:

1. Strategy of actions on five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021". Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 No. PF-4947. 182
2. "On measures to further improve the preschool education system in 2017-2021". Decision of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-2707 of December 29, 2016.
3. The Law of the Republic of Uzbekistan "On Education": "A perfect generation is the foundation of the development of Uzbekistan." - T.: Sharq, 1997.
4. R. Shomakhmudova "Inclusive education of visually impaired children" Tashkent UNESCO 2005 (scientific article)

5. Vakhobjonova Z.B. Communicative art and optical formation of schoolchildren with severe disorders and educational integration. *Psychologist-pedagogical research*. 2014; No. 4 (32): 168 – 173.
6. Grigoreva G.V. Osobennosti vladenia neverbalnymi sredstami obshcheniya doshkolnikami s narusheniyami zreniya. *Defectology*. 1998; No. 5: 12 – 16.
7. Kojanova N.S. Sostoyanie sformirovannosti kommunikativnyx umeniy doshkolnikov s narusheniyami zreniya. *Special training*. 2009; No. 2 (14): 18 – 29.
8. Kuzmenkova N. Yu. Svoeobrazie kommunikativnyx umeniy doshkolnikov s obshchim nedorazvitiem rechi. *Vestnik Pomeranian University. Series: Humanities and social sciences*. 2010; No. 2: 154 – 158
9. Internet information. PY. [http // Special psypublic. PY](http://Specialpsypublic.PY). [http // revolution allbest. ru/ pedagogies // w.w.w.Kinder.by](http://revolutionallbest.ru/pedagogies//w.w.w.Kinder.by).
10. N. Abidova "Characteristics of development of visually impaired children" (Collection of articles of the Scientific and Practical Conference of the Republic) 2011.
11. I.K. Khalikov "Methodological problems of teaching blind children". (Collection of articles of the Scientific and Practical Conference of the Republic) 2011.